



BOLALARDAGI YASHIRIN QOBILYATLARNI RO'YOBGA CHIQRISH METODIKASI

Jumayeva Farangiz Jasur qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalardagi yashirin qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirishning pedagogik hamda psixologik asoslari yoritiladi. Shuningdek, o'qituvchi va ota – onalarning bolalar iste'dodini yuzaga chiqarishdagi roli, samarali metod va usullar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: qobiliyat, iste'dod, kreativlik, motivatsiya, pedagogik, metodlar, individual, yondashuv, ta'lim.

Kirish

Har bir bola o'ziga xos qobiliyat va imkoniyatlarga ega. Biroq bu qobiliyatlarning barchasi ham darhol namoyon bo'lavermaydi. Ba'zi bolalarda yashirin iste'dodlar mavjud bo'lib, ularni aniqlash va rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biridir. Bolalardagi qobiliyatlarni yuzaga chiqarish va namoyon etish uchun har bir pedagog individual yondashgan holda ishlashi yaxshi samara beradi. Ko'pgina bolalarda yoshligidagi qo'rquv uyalish hissi ota – ona bilan muloqot kamligi va do'stlarning yo'qligi hamda turli xildagi stress holatlari orqali ham iste'dodlarini namoyon eta olmaydi. Bu yashirin iste'dodlar bolalarda bog'cha maktabga chiqqanlarida asta – sekin yuzaga chiqadi boshlaydi. Zamonaviy ta'lim tizimida bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning qiziqishlarini qo'llab – quvvatlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Yashirin qobiliyatlarni aniqlash usullari

Bolalardagi qobiliyatlarni aniqlash uchun quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

1. Kuzatish metodo – bolaning darsdagi o'yin va ijodiy faoliyatidagi xatti – harakatlarini muntazam kuzatish.
2. Suhbat metodi – bolaning qiziqishlari, orzulari va maqsadlarini aniqlash maqsadida suhbatlar o'tkazish.
3. Test va diagnostik topshiriqlar – qobiliyat va intellekt darajasini baholash.
4. Ijodiy faoliyatni tahlil qilish – rasm chizish, hikoya yozish, musiqa yoki texnik faoliyatga bo'lgan moyillikni o'rganish.

Qobiliyatlarni rivojlantirish metodlari

Yashirin qobiliyatlarni ro'yobga chiqarishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi.

- . Individual yondashuv metodi – har bir bolaning imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish.
- . Loyiha metodi – mustaqil izlanish va ijodkorlikni rivojlantirish.
- . Muammoli ta'lim metodi – bolani fikrlashga, yechim topishga undash.



- . O'yin texnologiyalari – qiziqarli faoliyat orqali bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish.
- . Rag'batlantirish metodi – bolalarning muvaffaqiyatlarini e'tirof etish va qollab – quvvatlash.

Bolalardagi yashirin qobiliyatlarni ro'yobga chiqarishda ota – onalarning roli juda ham muhim. Bolalarning har biri o'ziga xos qobiliyat bilan dunyoga keladi. Ushbu qobiliyatlarni aniqlash, rivojlantirish va yuzaga chiqarishda ota – onalar muhim o'rin tutadi. Chunki bola hayotidagi ilk tarbiyachilar va eng yaqin insonlar aynan ota – onalardir.

Ota – onalarning asosiy vazifalari

1 . Bolaning qiziqishlarini kuzatish – Ota – onalar bolaning nimaga qiziqishini diqqat bilan kuzatishlari kerak. Masalan, ayrim bolalar rasm chizishga, boshqalari musiqa, sport yoki matematika fanlariga qiziqishi mumkin. Ushbu qiziqishlar yashirin qobiliyatlarning ilk belgisi hisoblanadi.

2 . Qulay sharoit yaratish – Bolaning qobiliyatini rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratish muhimdir. Kitoblar, o'yinlar, to'garaklar, sport mashg'ulotlar va boshqa rivojlantiruvchi faoliyatlar bolaning iste'dodini namoyon etishga yordam beradi.

3 . Rag'batlantirish va qo'llab- quvvatlash – Bolaning har bir yutug'ini e'tirof etish va rag'batlantirish uning o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Ota – onaning maqtovi va qo'llab – quvvatlashi bolani yangi marralarni zabt etishga undaydi.

4 . Erkin fikrlashga imkon berish – Bolaga mustaqil qaror qabul qilish, fikr bildirish va ijodkorlik ko'rsatish imkoniyatlarini berish kerak. Bu uning qobiliyatlari erkin rivojlanishiga yordam beradi.

Ota – onalar yo'l qo'ymasligi kerak bo'lgan xatolar ham mavjud, bulardan eng muhimi va bolaga juda ham katta ta'sir qiladigan holat bu bolani boshqa tengdoshlari bilan taqqoslash holatlari bolaga kuchli ta'sir qiladi. Va shu bilan bir qatorda bolaning qiziqishlarini e'tiborsiz qoldirish. Ba'zi bir ota – onalar farzandining faqatgina baholariga e'tibor qaratib uning qobiliyatlari va qiziqishlarini chetga surib qo'yishadi mana shu holatlar ham bolalarga kuchli ta'sir qiladi va barcha qiziqishlarini so'nishiga olib keladi.

Xulosa

Bolalardagi yashirin qobiliyatlarni ro'yobga chiqarish ta'lim va tarbiya jarayonining muhim vazifalaridan biridir. Qobiliyatlarni o'z vaqtida aniqlash va rivojlantirish bolaning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun mustahkam zamin yaratadi. Bunda individual yondashuv, zamonaviy pedagogik metodlar va ota – ona hamda o'qituvchi hamkorligi muhim ahamiyatga ega.





Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. Toshkent, 2020.
2. Hasanboyev J, To'raqulov X, Haydarov M. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
3. Krimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: Sharq, 2002.
4. Bolalar qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogic- psixologik asoslari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar. – Toshkent, 2023.

